JURNALISTIKA

Marziyaev Janabay Kalibaevich (Qoraqalpoq davlat universiteti "Jurnalistika" kafedrasi mudiri, dotsent (PhD)

QORAQALPOG'ISTONDA JURNALIST MUTAXASSISLARNI TAYYORLASH: TARIX VA YUTUQLAR

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston ommaviy axborot vositalari uchun jurnalist mutaxassislarini tayyorlash masalasi va Qoraqalpoq davlat universitetida tashkil qilingan jurnalistika ta'lim yo'nalishini faoliyati, tarixi va bugungi kundagi yutuqlari o'rganilgan va tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *jurnalistika, ta'lim yo'nalishi, mutaxassislik, pedagog, Qoraqalpoq davlat universiteti, malaka, talaba, magistrant, xalqaro aloqa.*

Марзияев Жанабай Калыбаевич (заведующий кафедрой журналистики Каракалпакского государственного университета, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент)

ПОДГОТОВКА КАДРОВ ЖУРНАЛИСТОВ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ: ИСТОРИЯ И ДОСТИЖЕНИЯ

Аннотация. *В данной статье изучены и проанализированы вопросы подготовки журналистов для средств массовой информации Каракалпакстана и деятельность, история и современные достижения направления образования журналистики, созданного в Каракалпакском государственном университете.*

Ключевые слова*: журналистика, направление образования, специальность, педагог, Каракалпакский государственный университет, квалификация, студент, магистрант, международная связь.*

Marziyaev Janabay Kalybaevich (Head of the Department of Journalism of Karakalpak State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, dotsent)

TRAINING JOURNALIST PERSONNEL IN KARAKALPAKSTAN: HISTORY AND ACHIEVEMENTS

Annotation*. This article examines and analyzes the issues of training journalists for the mass media of Karakalpakstan and the activities, history, and modern achievements of the journalism education department established at Karakalpak State University.*

Key words*: journalism, field of study, specialty, teacher, Karakalpak State University, qualification, student, master's student, international relations.*

Kirish (Introduction). Globallashuv davrida insoniyatning axborotga bo'lgan qiziqishi tobora ortib bormoqda. Shuning bilan birga, kun sayin axborotlar oqimining shiddat bilan o'sishi, o'z navbatida, insoniyat oldidagi muammolarning biri hisoblanadi. Ma'lumki, axborotlar bilan ishlashda jurnalist kadrlarning xizmati va hissasi alohida. Shu bois jurnalist mutaxassislardan o'z sohasi bo'yicha har tomonlama savodxonlik va zamonaviy tajriba talab qilinadi. Ayniqsa, bu yo'nalishda jurnalist mutaxassislarni tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalaridagi jurnalistika ta'lim yo'nalishlariga katta mas'uliyat yuklaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). Nazariy adabiyotlardan esa M.Xudoykulov [2], K.T.Irnazarov [3], F.Mo'minov [4], D.Bekbauliyev [5], Z.Kojıkbaeva [6], T.Masharipova [7], Z.Orazımbetova [8], P.Allambergenovalar [9] tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlaridagi jurnalistika va uning dolzarb masalalariga oid ilmiy qarashlari mavzuni ochib berishda asosiy manba sifatida qo'llanildi. Shuningdek, xorijlik tadqiqotchilardan E.P.Proxorov [10], M.S.Cherepaxov [11], E.I.Jurbina [12], A.A. Tertichniylar [13] asarlarini kiritishimiz mumkin. Ushbu asarlarda jurnalistika va uning ta'lim yo'nalishidagi asosiy masalalari hamda jurnalistik faoliyatining o'ziga xosligi masalalariga e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mazkur ilmiy ishni o'rganishda tarixiy, qiyosiy-tipologik, mantiqiy-eksperimental va an'anaviy tahlil usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Qoraqalpog'istonda oliy ma'lumotli va malakali jurnalist mutaxassislarni tayyorlash Qoraqalpoq davlat universitetida (o'sha paytda T.Shevchenko nomidagi Nukus davlat universiteti), dastlab, 1983–1984-o'quv yilidan boshlab yo'lga qo'yildi. O'sha yili 21 ta talaba qabul qilingan bo'lsa, keyingi o'quv yilida esa 25 ta talaba qabul qilingan. Bundan so'ng ta'lim yo'nalishiga talabalarni qabul qilish ayrim sabablarga ko'ra to'xtatiladi. Lekin 1989–1990-o'quv yilidan boshlab, yana yo'lga qo'yiladi. Mana shundan buyon universitetda jurnalistika ta'lim yo'nalishi mamlakatimizga bir qancha oliy ma'lumotli jurnalist mutaxassislarni tayyorlab kelmoqda.

1983-yilida, ta'lim yo'nalishi yo'lga qo'yilgan vaqtda, malakali ustozlardan K.Mambetov, E.Berdimuratov, Q.Maqsetov, Q.Sultanov, S.Ahmetov, A.Davletov, Y.Paxratdinov, G.Esemuratov, I.O'teuliyev Sh.Usnatdinov, K.Reymov, Sh.Ayapovlar talabalarga jurnalistika kasbining bilim va ko'nikmalaridan darslar berdi.

1989–1990-o'quv yilidan boshlab esa jurnalistika ta'lim yo'nalishiga yanada katta e'tibor qaratilib, "Qoraqalpoq adabiyoti" kafedrasi tarkibida «Adabiyot nazariyasi va jurnalistika» kafedrasi bo'lib ochiladi. Kafedraga filologiya fanlari doktori, professor K.Mambetov rahbarlik qiladi.

1988–1989-yillarda jurnalistika mutaxassisligini tamomlagan bir guruh yoshlar ishlab chiqarish sohalariga yo'llama olib, ulardan aksariyati respublikamiz ommaviy axborot vositalarining har xil sohalarida o'z faoliyatini boshlaydi. Dastlabki bitiruvchilardan ilm-fanga qiziqishi bor yoshlardan Z.Kojikbayeva, D. Bekbauliyev, T.Masharipova, A.Abdimuratov, Z.Urazimbetovalar jurnalistika sohasi bo'yicha ilmiy ishlarini boshlab, hozirgi kunda ular ilmiy muvafaqqiyatlarga erishib, talaba-yoshlarga zamonaviy ilm-fan va bilim sirlarini o'rgatib kelmoqda.

1992-yildan boshlab, ta'lim yo'nalishiga alohida e'tibor qaratilib, jurnalistika alohida kafedra sifatida faoliyat boshlaydi va kafedrani 2000-yilgacha filologiya fanlari nomzodi, dotsent M.Djumamuratova boshqaradi. 2000-yilda esa ozgina muddat A.Abdimuratov, 2001–2002-yillarda f.f.n. Z.Kojikbayeva, 2004 –2006-yillarda B.Paluanov, 2006–2009-yillarda f.f.d., professor Y.Paxratdinov, 2009–2014-yillarda t.f.n. D.Bekbauliyev, 2014–2019-yillarda f.f.n. Z.Urazimbetova, 2019–2022-yilllarda t.f.n. D.Bekbauliyev, 2022-yilning dekabr oyidan boshlab esa kafedraga filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent Janabay Marziyayev rahbarlik qilib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 26-fevraldagi 88-qaroriga asosan, o'sha yili Jurnalistika alohida bo'lim sifatida va uning tarkibida "Jurnalistika" kafedrasi qayta tashkil qilinib, alohida o'z faoliyatini boshlaydi. O'sha paytda bo'limda jami 100 ga yaqin talabalar ta'lim olardi. Alohida bo'lim sifatida ish boshlagan bo'limga, dastlab, 1999–2000-yillarda fizika-matematika fanlari nomzodi, professor B.Abdikamalov, 2000–2002-yillarda f.f.d., professor Sh.Abdinazimov, 2002–2004-yillarda f.f.n., dotsent B.Genjemuratov, 2004–2005-yillarda B.Paluanovlar rahbarlik qildi.

2005–2006-o'quv yilidan boshlab esa ta'lim yo'nalishi qaytadan Filologiya fakulteti tarkibiga qo'shildi. Fakultet tarkibida o'sha paytda qoraqalpoq tili va adabiyoti, qozoq tili va adabiyoti, turkman tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishlari bor edi.

Kafedrada oliy ma'lumotli jurnalist mutaxassislarni tayyorlash bilan birga, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish yo'nalishida va alohida e'tibor qaratildi. Hozirgi vaqtda kafedra O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat Jahon tillari universiteti, Buxoro davlat universitetlarida yo'lga qo'yilgan jurnalistika ta'lim yo'nalishlari bilan o'quv-uslubiy, ilmiy tadqiqot ishlari yo'nalishlarida hamkorlikda ishlar olib borilmoqda. Mana shunday hamkorlikdagi ishlar natijasida kafedra a'zolaridan M.Djumamuratova (1992), A.Abdimuratov (1997) va D.Bekbauliyevlar (1997), Z.Kojikbayeva (1998), Z.Urazimbetova (2006), B.Paluanov (2007), Q.Qalekeev (2009), A.Ayapov (2010), X.Atajanov (2012), T.Masharipova (2017), J.Marziyayev (2019), Q.Begniyazova (2019), A.Najimov (2012) va S.Esemuratovalar (2021), B.Nurabullayev (2022), E.Jarimbetov (2022), G. Kallibekova (2022) va G.Seitnazarovalar (2022), M.Kudaybergenov (2023), Y.Genjemuratovlar (2024) fan nomzodi (PhD) ilmiy ishlarini himoya qilib, ilmiy darajalarini olishga miyassar bo'ldi. Shuning bilan birga, kafedrada fan doktori ishlari ustida ham ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga ham keng e'tibor qaratilib, 2019-yilda Z.Urazimbetova, 2020-yilda T.Masharipova fan doktori ishlarini muvafaqqiyatli himoya qildi. Shuningdek, kafedra a'zolaridan 9 nafar professor-o'qituvchi dotsent ilmiy unvonini, bitta professor-o'qituvchi professor ilmiy unvonini olishga erishdi.

O'quv ishlari sohasida ham kafedra jamoasi bir qancha muvafaqqiyatlarni qo'lga kiritdi. Ya'ni, Respublikamiz oliy ta'lim muassasalari pedagoglari o'rtasida o'tkaziladigan «Oliy ta'lim muassasalarining eng yaxshi pedagogi» tanlovlarida faol ishtirok etib, 2017-yilda f.f.n., dotsent M.Djumamuratova «Eng yaxshi pedagog-tadqiqotchi» nominatsiyasi bo'yicha, 2019-yilda esa PhD, dotsent T.Masharipova ham «Eng yaxshi pedagog-tadqiqotchi» nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi.

Shuning bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabr kungi «Oliy ta'lim muassasalarini o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash to'g'risida»gi 816-qarori va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 10-iyun kungi «O'quv adabiyotlarni nashr etishga taklif berish jarayonini raqamlashtirish to'g'risida»gi 197-buyrug'i asosida tayyorlangan «Jurnalistika va g'alaba kommunikatsiya asoslari» (F.Mo'minov, D.Bekbauliyev va boshqalar), «Media tili va stili masalalari» (Z.Urazimbetova), Xorij jurnalistikasi (X.Atajanov, J.Marziyaev), "Jamoatchilik bilan

bilan aloqalar (PR)" (J.Marziyayev, G.Kallibekova) nomli darsliklari va "OAV tipologiyasi" (X.Atajanov, J.Marziyayev), "Datajurnalistika" (Q.Begniyazova, B.Gulimova, T.Muxiyatdinova), "Jurnalistik tekshiruv" (J.Marziyayev, X.Atajanov), "Jurnalistik mahorat" (J.Marziyayev, X.Atajanov), "Zamonaviy jurnalistika nazariyasi va amaliyoti" (X.Atajanov, J.Marziyaev), "Kreativ va tanqidiy fikrlash" (Z.Kojıkbayeva, G.Seitnazarova), "PR matnlar tipologiyasi" (K.Tleuov), "Media tili va stili" (J.Marziyayev, G.Kallibekova), "Mediada dizayn va vizualizatsiya" (J.Marziyaev, X.Atajanov), "Audivizual jurnalistika (Radiojurnalistika asoslari)" (B.Paluanov), "Fotojurnalistika" (S.Esemuratova), "Fuqarolik jurnalistika" (S.Esemuratova), "Publitsistika nazariyasi va amaliyoti" (T.Masharipova), "Ekologiya va jurnalistika" (J.Marziyayev) o'quv qo'llanmalariga O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining nashr etish bo'yicha guvohnomalari berildi va universitet tomonidan nashr etildi.

Professor-o'qituvchilar tomonidan bir qancha o'quv-uslubiy qo'llanmalar ham bosmadan chiqarish yo'lga qo'yildi. Ulardan D.Bekbauliyevning «Gazeta qanday chiqadi?», «Men redaktsiyadan», Z.Qojıqbaevaning «Talantga qanoat», «Qoraqalpog'iston publitsistikasida sud ocherklari», «Reklama tilining izohli lug'ati», M.Djumamuratova va Z.Urazimbetovalarning «Jurnalistika va adabiyot», «So'z marjonini tizganlar», «Ochiq axborot tizimlarida informatsion-psixologik xavfsizlik», A.Abdimuratovning «Qoraqalpog'iston fotojurnalistikasi tarixidan», Q.Qalekeevning «Qoraqalpog'iston matbuoti va mustaqillik davridagi manaviy rivojlanish», taniqli jurnalist Sh.Usnatdinovning «Jurnalistikaga kirish», T.Masharipovaning «Jonli so'z», «O'zimni izlayman, ...», B.Paluanovning «Publitsistika asoslari» va «Radiojurnalistika janrlari», X. Atajanov va J.Marziyayevlarning «Matbuot tipologiyasi», «Tarjima nazariyasi», "Birlashgan portal imkoniyatlari", X.Atajanov, J.Marziyayev, M.Kudaybergenov, G.Kallibekovalarning "Xorij jurnalistikasi tarixi", A.Najimovning "Mustaqillik yillarida qoraqalpoq tilidagi ijtimoiy-siyosiy leksikaning rivojlanishi" nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalari nashr etilib, ta'lim yo'nalishi talabalarining mutaxassislik fanlaridan bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishida asosiy manba sifatida xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda jurnalistika sohasining ahamiyatli masalalariga bag'ishlangan qator monografiyalar ham tayyorlanib nashr etilmoqda. Jumladan, Z.Urazimbetovaning «Qoraqalpoq vaqtli matbuoti tili» (2019), T.Masharipovaning «Publitsistika nazariyasining bir butun konsepsiyasi» (2016), A.Abdimuratovning "Pisatelskoe slovo – golos narodnoy sovesti" (2021), J.Marziyayevning «Mustaqillik yillari qoraqalpoq matbuotida ekologik muammolar talqini» (2022), E.Jarimbetovning "Qoraqalpoq matbuotida adabiyot masalalarining tahlili: yondashuvlar, tendensiyalar va muammolar" (2023), G.Kallibekovaning "Qoraqalpog'iston tarmoq gazetalarining tili va uslubiy xususiyatlari" (2023), Q.Begniyazovaning "Jurnalistikada gipermatnning o'ziga xos xususiyatlari va uni yaratish algoritimi" (2024), M.Kudaybergenovning "Hozirgi zamon Qoraqalpog'iston bolalar matbuotining tematikasi va janriy-uslubiy xususiyatlari (2017–2021-yillar misolida)" (2024) nomli monografiyalari nashr qilindi.

Kafedra a'zolaridan davlat mukofoti sovrindorlari va faxriy unvonlarga ham erishayotgan ustozlar qatori ortib bormoqda. Shulardan M.Djumamuratova (2022), A.Abdimuratov (2023) va D.Bekbauliyev (2023), B.Nurabullayevlar (2024) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashi Prezidiumining qaroriga muvofiq "Vatan fidoyisi" ko'krak nishoni bilan, T.Masharipova «Yilning eng faol jurnalisti» nominatsiyasi g'olibi (2014) va «Ibratli ayol» ko'krak nishoni bilan, E.Jarimbetov (2022) Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengashining "Maqtov yorlig'i" bilan mukofotlangan.

2020–2021-o'quv yilidan boshlab, kafedra tarkibida Respublikamiz muassasa va tashkilotlariga Axborot xizmati (matbuot kotibi) mutaxassislarini tayyorlab berish maqsadida 60320200-Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar ta'lim yo'nalishi o'z faoliyatini boshladi. O'sha paytda ushbu mutaxassislikning qoraqalpoq guruhiga 30 nafar talaba, o'zbek guruhiga 15 nafar talaba, rus guruhiga 6 nafar talaba qabul qilindi. 2024-yili ushbu talabalar o'z mutaxassisligi bo'yicha bakalavr darajasiga ega diplomlarini olib, o'z mutaxassisligi bo'yicha ishlab chiqarish o'rinlariga ishga joylashib, xalq xizmati yo'lida faoliyat olib bormoqda. Shuning bilan birgalikda, kafedra tarkibida 2018–2019-o'quv yilidan boshlab, ta'lim yo'nalishining sirtqi bo'limi ham yo'lga qo'yilib, bu esa Respublikamiz ommaviy axborot vositalari sohasida bir necha yillardan buyon faoliyatini olib borayotgan va ish sababli kunduzgi bo'limda o'quv imkoni bo'lmagan yoshlar va xodimlar uchun katta imkoniyatlarning biri bo'ldi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

2003–2004-o'quv yilidan kafedrada magistratura ta'lim bosqichining yo'lga ko'yilishi Qoraqalpog'istonda oliy magistr darajali va ilm-fanga dastlabki qadam tashlayotgan yoshlar qatorini ko'paytirishga asos bo'ldi. Mana shundan buyon bakalavriartura bosqichini tugatgan yoshlar magistratura bosqichida tahsil olib va uni muvafaqqiyatli tugatib, ilm-fan, pedagogika va respublikamizning boshqa da ishlab chiqarish sohalarida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 2024–2025-o'quv-yilidan kafedrada "Axborot xizmati va jamoatchilik bilan aloqalar" va "Noshirlik ishi va muharrirlik" mutaxassisligi bo'yicha ham magistrantlarni

tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda magistratura bosqichida 4 ta mutaxassislik majud bo‘lib, ularda 30 ga yaqin magistrantlar ta’lim olmoqda.

Jurnalistika ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan talaba-yoshlar orasidan davlat stipendiyasi va nomdor stipendiya tanlovi g‘oliblari ham mavjud. Ulardan A.Urazimbetova «Zulfiya» nomidagi davlat mukofoti sohibi (2013), G.Nurimbetova Navoiy nomidagi davlat stipendiya g‘olibi (2007), S.Esemuratova Berdaq nomidagi davlat stipendiyasi g‘olibi (2015), G.Seytnazarova Prezident davlat stipendiyasi g‘olibi (2016), A.Kemalova “Umid uchquni” ko‘krak nishoni (2019) va “Mustaqillikning 30 yilligi” ko‘krak nishoni bilan (2021), A.Qalbayeva “Umid uchquni” ko‘krak nishoni (2021), D.Qallibekova “Mirzo Ulug‘bek vorislari”, “Eng yaxshi turizm loyihasi”, “Uzbek voice” respublika ko‘rik-tanlovlari g‘olibi (2023) va 2024-yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengashi raisi tomonidan “Tashakkurnoma” bilan, D.Dauletbayeva Prezident davlat stipendiyasi g‘olibi (2023), A.Dabilov Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi g‘olibi (2023), O.Latipov I.Yusupov nomidagi davlat stipendiyasi g‘olibi (2023), B.Jartibayeva Qozog‘iston Respublikasi Qo‘sh qanot jamg‘armasi tashkiloti tomonidan tashkillashtirilgan “Altın qıran” ko‘krak nishoni bilan (2023) va Berdaq nomidagi davlat stipendiyasi g‘olibi (2024), N.Baltaniyazova Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi g‘olibi (2024), A.Abibullayev «Vatan fidoyisi» ko‘krak nishoni bilan (2024), G.Kuanishbayeva «Kelajak bunyodkori» mukofoti (2024), G.Jaqsimuratova «Umid uchquni» ko‘krak nishoni (2024) va I.Yusupov nomidagi davlat stipendiyasi g‘olibi (2024), D.Saparbayeva «Umid uchquni» ko‘krak nishoni (2024) mukofotlari bilan taqdirlangan talabalar qatori ko‘paymoqda.

2023-yildan boshlab, kafedrada tayanch doktorantura bosqichi yo‘lga qo‘yildi, o‘sha yili 3 nafar doktorant qabul qilingan bo‘lsa, 2024-yilda 4 nafar doktorant, 2025-yilda 2 nafar doktorant va bitta erkin izlanuvchi qabul qilindi.

Kafedraning xalqaro aloqalari ham yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Bu yo‘nalishda kafedra a’zolaridan B. Paluanov IAMCR (International Association for Media and Communication Research) tashkiloti a’zosi sifatida 2008-yilda Shvetsiyada o‘tkazilgan konferensiyada o‘z ma’ruzasi bilan ishtirok etdi. Shuningdek, Polsha (2016), Qozog‘iston (2020), Portugaliya (2017), Ispaniya (2018), AQSH (2023) xalqaro seminar va treninglarida faol ishtirok etib keldi. 2015-yilning iyul oyida esa Polshaning Poznan shahridagi Adam Michkeevich universitetining siyosiy fanlar va jurnalistika fakultetida tashkil qilingan «Yangiliklar savodxonligi» yozgi maktabida grant g‘olibi sifatida ishtirok etib, malaka almashinuviga erishdi. Shuning bilan birga, B.Paluanov Yevropa Ittifoqining Erazmus Mundus dasturining TOSCA loyihasi doirasida grant g‘olibi bo‘lib, Portugaliyaning Portu universitetida 2011–2012-yillarda ilmiy stajirovkada o‘z malakasini oshirib keldi. Shuningdek, kafedra a’zolaridan Y.Genjemuratov esa 2010–2014-yillarda va 2024-yilning oktabr-noyabr oylarida Polshaning Adam Michkeevich universitetida, erkin izlanuvchi J.Zarimbetova 2012–2015-yillarda Polshaning Krakov shahridagi Yagellonian universitetida, talaba shogirdlardan G.Axmedova 2012–2013-yillarda Latviyaning Latviya universitetida o‘z bilim va tajribalarini orttirib kelgan bo‘lsa, 2016 -yilda magistrant B.Sultamuratov Yevropaning taniqli universitetlerida (Portugaliya, Belgiya, Slovakiya, Italiya), J.Iskenderov esa 2018-yilda Italiyaning Lakullya universitetida almashinuv dasturida ishtirok etdilar. I.Abiyev esa 2021–2022-o‘quv yilida Polshaning Bialistok universitetida o‘z malakalarini oshirdi.

Jurnalistika mutaxassisligini bitirgan bitiruvchilar orasidan jamiyatimizning har xil sohalarida muvaffaqqiyatli faoliyat olib borayotgan yoshlarning aksariyati davlat mukofoti sovrindorlari va faxriy unvonlariga ega bo‘layotganlari talaygina. Ulardan ayrimlari O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist va Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist faxriy unvonlariga ega bo‘lgan bo‘lsa, ayrimlari esa ommaviy axborot vositalari sohasida o‘tkazilib kelayotgan katta tanlovlarda, jumladan, “Oltin qalam”, “Yilning eng faol jurnalisti” va boshqa tanlovlarda g‘olib bo‘lib kelmoqda.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Qoraqalpog‘istonda malakali jurnalist mutaxassislarni tayyorllashda Qoraqalpoq davlat universitetida tashkil qilingan jurnalistika kafedrasi o‘z faoliyatini yo‘lga qo‘yganidan buyon mamlakatimizning ommaviy axborot vositalari sohasiga, shuning bilan birgalikda, davlat boshqaruv organlari sohalarida ham yetuk malakali mutaxssislarni tayyorlab kelmoqda. O‘z navbatida, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislar jamiyatimizda yuz berayotgan voqea va hodisalarni egallagan kasbiy ko‘nikmasi va burchi asosida haqqoniy yoritib hamda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy va ma’rifiy sohalarining rivojlanishida o‘z hissalarini qo‘shib kelayotganini yuqoridagi misollar orqali ham aniq ko‘rsa bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati (References):

(1). Prezident Shavkat Mirziyoyevning Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga tabrigi. 27.06. 2022. https://president.uz/uz/lists/view/5294; Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruza. 2016-yil 7-dekabr. Sh.M.Mirziyoyev. T., «O‘zbekiston», NMİU, 2017, 48-bet.

(2). Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. O‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Tafakkur”, 2011, 288-bet.

(3). Ernazarov Q. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. T., O‘zMU, 2002.

(4). Mo‘minov A. Jurnalistika ijtimoiy institut sifatida. T., O‘zMU, 1998.

(5). Bekbauliev D.O. Davlat mustaqilligi yillarida Qoraqalpog‘iston davriy matbuoti (1991–1994). Tarix f.n. diss. avtoreferati., T., 1997, 26-bet.

(6). Kojıkbayeva Z. Qaraqalpaq publitsistikasında sud ocherkleri. No‘kis, “Qaraqalpaqstan”, 2009, 32-bet.

(7). Masharipova T. Publitsistika teoriyasınıń bir butin konsepsiyası. Ilimiy-metodologiyalıq analiz, T., “Mo‘mtoz so‘z”, 2016, 292-bet.

(8). Orazımbetova Z. Qaraqalpaq ku’ndelikli baspaso‘zi tilinin’ stillik o‘zgeshelikleri. T., «Hihol media», 2019, 162-bet.

(9). Allambergenova P. Jurnalistikada janr masalasi. O‘zbekistonda xorijiy tillar. T., 2020, 1(30), 158–165-betlar.

(10). Прохоров Е.П. Искусство публицистики. Размышления и раздоры. М., «Мысль», 1984, с. 359.

(1)1. Черепахов М.С. Таинство мастерства публициста. М., «Мысль», 1989, с. 150.

(12). Журбина Е.И. Повесть с двумя сюжетами. М., «Сов.писатель», 1979, с. 300.

(13). Тертичный А.А. Жанры периодической печати. Учебное пособие, М., “Аспект Press”, 2000, с. 310.

(14). Marziyaev J.K. The principles of the development of present Karakslpakstan's mass media. International Scientific Journal (ISJ) Theoretical & Applied Science. Philadelphia, USA. 03 (83), 500. Impact Factor ICV=6.630. Published, 2020, p. 274–277. https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.03.83.52

(15). Марзияев Ж.К. Роль и место публицистических жанров в современной каракалпакской печати. Вестник Челябинского государственного университета. Челябинск, № 6 (260), 2012, с. 88–92. https://cyberleninka.ru/article/n/rol-i-mesto-publitsisticheskih-zhanrov-v-sovremennoy-karakalpakskoy-pechati/viewer

Bahodirova E’zoza (O‘zbekiston davlat Jahon tillari universitetining mustaqil izlanuvchisi)

INFOTEYNMENTNING TELEKANALLARDA PAYDO BO‘LISHI VA ASOSIY XUSUSIYATLARI

Annotatsiya. *Maqolada infoteynmentning jahon telekanallarida paydo bo‘lishi va asosiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu formatdagi ko‘rsatuvlarga ehtiyojning yuzaga kelishi, shaxslashtirilgan axborot va unda boshlovchining o‘rni ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *informatsiya, infoteynment, interteyment, dastur, telekanallar, ekran, efir, shaxslashtirilgan axborot.*

ПОЯВЛЕНИЕ ИНФОТЕЙНМЕНТА НА ТЕЛЕВИЗИОННЫХ КАНАЛАХ И ЕГО ОСНОВНЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ

Аннотация. *В данной статье анализируется процесс появления инфотейнмента на мировом телевидении и рассматриваются его основные особенности. Исследуется растущий спрос на программы данного формата, роль персонализированной информации, а также значение ведущего а формировании инфотейнмент-контента.*

Ключевые слова: *информация, инфотейнмент, интертейнмент, программа, телеканалы, экран, трансляция, персонализированная информация.*

THE EMERGENCE AND KEY FEATURES OF INFOTAINMENT ON TELEVISION CHANNELS

Annotation. *This article examines the rise and defining characteristics of infotainment on global television channels. It explores the growing demand for programs in this format, the role of personalized information, and the significance of the presenter in shaping infotainment content.*

Keywords: *information, infotainment, intertainment, program, TV channels, screen, broadcast, personalized information.*

Kirish (Introduction). 1980-yillarning o‘rtalarida AQSH telekanallarida informatsion dasturlarning auditoriyasi torayib, reyting tushib ketdi. Bu esa medialarga iqtisodiy, moliyaviy jihatdan salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shu zayl teleko‘rsatuvlar mualliflari oldiga axborot berish mazmun-mohiyati va shakl-shamoyiliga